

TA'LIM SOHASIDA TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODLARI

Vaxobova Mohiraxon Abbosxonovna

*Namangan viloyati Kosonsoy tuman 1-son politexnikumi maxsus
fan o'qituvchisi*

Elektron pochta manzili: moxiravaxobova31@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxs fazilatlari, jamiyatda inson roli, yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlari, yoshlarga psixologik yordam berish haqida ma'lumot berilgan. Maqolada tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari hamda psixologik tavsiyalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim-tarbiya, psixologik xususiyat, intellektual, ko'nikma, malaka, ijtimoiy, individual, ehtiyoj, psixik taraqqiyot, pedagogik ta'lim, psixik rivojlanish, aqliy faoliyat usullari, maktab faoliyati, o'smirlarning tipologik xususiyati, o'smirlik davri, psixologik sifat.*

Abstract: *This article provides information about personal qualities, the role of a person in society, educational work with young people, and psychological support for young people. The article covers methods of working with students with difficult upbringing and psychological recommendations.*

Keywords: *Education, psychological characteristics, intellectual, skills, qualifications, social, individual, needs, psychological development, pedagogical education, psychological development, methods of mental activity, school activities, typological characteristics of adolescents, adolescence, psychological quality.*

KIRISH

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'prok shu davrga taaluqlidir. O'smirlik davrini – o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarni ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va



xususiyatlarini baʼzan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor etish natijasida paydo boʻladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning ulgʻayib, katta odamga aylanish jarayonining oʻzi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan boʻlgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta oʻzgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining oʻzgarishi bilan bogʻliqdir. Oʻsmirlarga taʼlim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda oʻsmir bilan boʻladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini oʻzgartirish muhimdir. Ularga taʼsir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim boʻladi. Bunda albatta, har bir yosh bilan alohida munosabatda boʻlish maqsadga muvofiqdir. Oʻsmirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tugʻdirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari oʻrtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar oʻsmirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan oʻzaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan oʻsmirga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan oʻsmirlar real xatti-harakatlarning shakllari oʻrtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qaramaqarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida oʻsmirning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga oʻtishi amalga oshiriladi.

Tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishi ijtimoiy sabablaridan tashqari pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Yoshlarda nojoʻya xatti-harakatlar paydo boʻlishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishni yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin oʻsmirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoida buzar guruhlariga ajratiladi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy hislarning yetishmasligi;
- b) oʻqituvchi, sinf jamoasi, oila aʼzolari bilan notoʻgʻri muloqot;
- v) ishyoqmaslik;
- g) boʻsh vaqtni toʻgʻri taqsimlay bilmaslik va boshqalar salbiy holatlarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, shaxsning oʻquv faoliyatidagi kamchiliklari:

- 1) aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik;
- 2) bilim, koʻnikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
- 3) maktab faoliyatidagi tarbiyaviy yoʻnalishdagi kamchiliklar;
- 4) oʻqitishdagi nuqsonlar ham shular jumlamasiga kiradi.



O‘smirlarning tipologik xususiyatlariga qarab ularni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Bular o‘z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma’qul ishlarni qiladilar. O‘zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Lekin yutuqlarini e’tirof qilishini xohlaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma’qullashini va o‘z talablarini o‘zgalar so‘zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Ular betga chopar, o‘jar, rahm-shafqatsiz, «zo‘ravon» bo‘ladilar.

Mustaqil fikrga ega bo‘lmagan tengdoshlarini o‘z atroflariga to‘playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar. Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o‘smirlar yaxshi va yomonni tushunadiganlar, biroq mustaqil e’tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg‘uga ega emasliklari sababli «orqa qanot»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta’sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog‘likdir. Ular tashviqotga tez beriladiganlar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo‘lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko‘ngilsiz ishlarga qo‘l uradilar. Ko‘pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a’zolarini ishontiradilar, lekin ma’lum fursat o‘tgandan so‘ng bergan va’dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o‘smirlar shaxsiyatparastlik tufayli

qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo‘liga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va

ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo‘ya xatti-harakatlardan qaytmaydilar,

odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar. Biroq o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini

ijtimoiy manfaatdan yuqori qo‘yadilar. O‘zlarining xoxishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so‘ng qilmishlariga afsus-nadomad chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar. Ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xoxishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo‘ladi. Injiq tabiatli qiyin tarbiyalanuvchilar jamoa va guruhlarda o‘z o‘rinlarini topa olmaydilar, ular arazchan, ginaxon bo‘lib o‘z guruh va jamoalariga qo‘shilib ketavermaydilar, tortinib o‘zlarini kamsitilgandek his qiladilar. Ular ham qiyin tarbiyalanuvchi yoshlarning bir turidir. Jamoa o‘rtasida obro‘ qozonishni, hurmatga sazovor bo‘lishni juda xohlaydilar. Lekin ulardagi tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o‘z imkoniyati, aqliy quvvatga ishonchsizlik bunga imkon bermaydi. Ular maktab, sinf jamoasining qoida va



qonunlarini buzishga harakat qilmasalar ham, lekin bu jamoaning ish faoliyati va muvaffaqiyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida yetarlicha

qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar, jamoa ishini orqaga

suradilar va jamoa ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi.

1. Bola rivojlanishidagi biologik nuqsonlar: a) sezgi organlaridagi kamchiliklar

b)

o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining

mavjudligi;

2. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

a) aqlning bo'sh rivojlanligi;

b) irodaning zaifligi;

v) hissiyotning kam rivojlanganligi;

g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;

d) o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibli.

3. Bola tarbiyasidagi nuqsonlar:

a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;

b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;

v mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatoliklar;

d) ijtimoiy muhit, oilaviy sharoitdagi ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlar.

1. Bolaning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi o'zgarishlar;

b) ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarning yetishmasligi.

2. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta'lim jarayonida bilimlari va xatti-harakatlarini adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish

va h.z.

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smirlarga xayrixoh emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik).



3. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

a) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

v) ota-onalari yoki oila aʼzolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

g) oila aʼzolari oʻrtasida sudlangan kishining uchrashi;

d) tengqurlarning salbiy ishlariga (haqorat qilishiga, ichishga, chekishga, qoʻli

egrilikka) oʻrgatish va h.z.; ye) madaniy-maʼrifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari (eʼtiborsizlik va loqaydliklari).

“Yomon bolalar boʻlmaydi, balki maʼsuliya va loqayd kattalar boʻladi...”

Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdagi

harakat yoki holatga nisbatan qaramligi. Misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik.

Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid,) - insonning jamiyatda

oʻrnatilgan tartib va qoidalarga zid boʻlgan, maʼnaviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor koʻp hollarda uydan ketib qolish, “oʻz dunyosiga” berkinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, oʻzini-oʻzi oʻldirishga, suiqasd qilishda namoyon boʻladi.

Suitsidal xulq-atvor – insonning suiqasd qilishi yoki oʻzini-oʻzi oʻldirish haqida

fikrlaydigan, rejalashtiradigan va amalga oshiradigan xulq-atvor. Maʼlumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan meʼyorlarga zidligi va ruxiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi koʻrinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan boʻyin tovlash koʻrinishidagi oʻzini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon boʻluvchi aloxida qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Ogʻuvchi xulq (deviant, lot. deviatio - ogʻish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umumeʼtirof etilgan meʼyorlardan farq qiladigan yoki u oʻzi aʼzosi boʻlgan jamiyat tomonidan qabul qilingan meʼyorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy meʼyorlaridan ogʻishida namoyon boʻladigan axloqqa aytiladi. Kuzatishlardan maʼlum boʻlishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik taʼsirlarga qarshilik koʻrsatadi, ularning xulqida oʻzini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi. Pedagog va psixologlar tomonidan eng avvalo xulqida ogʻish kuzatilayotgan bolalarning oilaviy ahvoli oʻrganiladi, mahalla va oila bilan yaʼni bolaning ota-onasi yoki unga masʼul shaxs bilan uzviy aloqa oʻrnatishi,



o'quvchining darslarda ishtirokini va darsdan tashqaridagi faoliyatini nazorat qilish, darslarni tahlil qilishi, ular bilan turli suhbatlar o'tkazish orqali tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash va muammoni hal qilish yo'llarini izlash mumkin. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb aytgan chuqur ma'noli iborasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha yosh avlod tarbiyasining dolzarb masala ekanligi avvalgidan muhimroq ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Zero, farzandning oiladagi tarbiyasi, uning maktabdagi ta'limi hamda kelajakda o'z yo'lini topib ketishiga panja orasidan qarab, faqatgina ularning moddiy ta'minoti bilan ovora bo'lib qolayotgan ota-onalar, tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar hanuzgacha uchrayotgan. Buyuk islomshunos faylasuf Imom G'azzoliy "Bolalar ota-onalariga berilgan

bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho

gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy psixologik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda: Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta'minlangan oilalar farzandlariga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilinishi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o'rganishadi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan alohida shug'ullanishadi. Maktabda

psixologlari, bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o'rganishadi. Psixoterapevt va

psixologlar ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi. Maktabda mavjud bo'lgan sog'liqni saqlash xizmati maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi. Maktabda ijtimoiy ishga maktab direktori yordamchilaridan biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabning maktabgacha tarbiya muassasalari, turli hukumat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'tibor qaratadi. Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy psixolog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi. Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy psixolog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining yaxshilanishiga yordam U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish



maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi. Ijtimoiy psixolog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi.

“Tarbiyasi og‘ir” o‘smirlar jismoniy jihatdan sog‘-salomatdir, biroq ularning ta‘lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o‘z tengdoshlaridan o‘qishda ortda qoladilar, sababi

ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan. Garchi ular o‘zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o‘zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug‘ullana olishmaydi. “Tarbiyasi og‘ir” o‘smirlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o‘qishni xohlashmaydi, o‘qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadi. Maktabni tashlab ketishadi, o‘zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste‘mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o‘spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo‘rlik oqibatida o‘z jonlariga qasd qilishadi. O‘spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo‘lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo‘lga qo‘yilganligi natijasidir. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasada bolani tarbiyalovchi omillarni boshqarsa, ko‘cha-kuyda boshqarib bo‘lmaydi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o‘smirlar bo‘sh vaqtlarini aksariyati aynan ko‘chada o‘tkazishadi. U yerda ularning muomalasi, ya‘ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlaridan biri shakllanadi. O‘quvchi o‘spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o‘qishdir. Biroq o‘qish tarbiyasi og‘ir o‘smirlar uchun o‘qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vosita emas. Shuning uchun ular o‘zlariga muhim bo‘lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu yerda, o‘zi kabi o‘smirlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo‘pollik uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi. Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash joylarida bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib borish amaliyoti paydo bo‘lmoqdaberadi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. sixolog A.B. Filonov tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv o‘smirlar guruhlarida paydo bo‘ladigan mikro muhitlarga faol ta‘sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma‘lumotiga ko‘ra, voyaga yetmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo‘lib sodir etishadi. Biroq voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha ko‘pgina



tavfsiyalar individual profilaktika tavfsiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek, ajratib olingan o'smirning huquqbuzarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilmagan natijalarga olib kelavermaydi. Bu holat huquqbuzar o'smirning yashash joyidagi guruhning a'zosi bo'lganligi va a'zolariga bog'liq bo'lishi bilan izohlanadi. Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega

deb, e'tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo'qotishlarga olib keladi. Shu bois, tarbiyasi va xulq-atvorida o'zgarishi bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Tarbiyada ta'sir ko'rsatish usullariga ya'ni taqdirlash va jazolash yo'llariga alohida e'tibor beriladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to'g'ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy xususiyatlarni oldini olish va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida. 2-kitob, 1993.
2. To'raeva O. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T. 1994.
3. Musurmonov R., Musurmonova M. "O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini klaster usulida o'rganish" O'quv-metodik qo'llanma, T.: "MALIK PRINT CO" 2022 y. 145 bet
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 80 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37- son, 426-modda
6. G. Shoumarov, B. Umarov, F. Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo'llanma. T- 2015



4. N. G`. Komilova. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. T.- 2007.
5. O. Qodirova, B. Parmonov Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi O`quv-uslubiy majmua Andijon-2019

